O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Ish haqi. 2025- yil yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyati shahar, tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda. Viloyatda o‘rtacha oylik ish haqi 7 612,3 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 11 588,8 ming so‘mni (viloyatning o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 152,2 %), Zarafshon shahrida 10 569,9 ming so‘mni (138,9 %), Konimex 8 367,6 ming so‘mni (109,9 %), Navoiy shahrida 8 139,1 ming so‘mni (106,9 %) tashkil etgan bo‘lsa, Karmana tumanida 5 784,5 ming so‘mni (76,0 %), Tomdi tumanida 4 679,6 ming so‘mni (61,5 %), Navbahor tumanida 3 784,0 ming so‘mni (49,7 %), G‘ozg‘on shahrida 3 668,6 ming so‘mni (48,2 %), Xatirchi tumanida 3 556,4 ming so‘mni (46,7 %), Nurota tumanida 3 385,8 ming so‘mni (44,5 %) va Qiziltepa tumanida 3 354,4 ming so‘mni (44,1 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi* (*ming so‘mda*)



Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yil yanvar- sentabrga nisbatan, % da)

ming so‘mda

	2024- yil	*2025*- yil*	*O‘sish sur’ati, % da*
Jami	**6 611,0**	**7 612,3**	**115,1**
Navoiy sh.	7 127,8	8 139,1	114,2
Zarafshon sh.	9 679,0	10 569,9	109,2
G‘ozg‘on sh.	3 210,5	3 668,6	114,3
Karmana	4 692,5	5 784,5	123,3
Konimex	7 205,4	8 367,6	116,1
Qiziltepa	2 841,9	3 354,4	118,0
Navbahor	3 118,4	3 784,0	121,3
Nurota	2 934,2	3 385,8	115,4
Tomdi	3 829,0	4 679,6	122,2
Uchquduq	10 192,7	11 588,8	113,7
Xatirchi	2 980,3	3 556,4	119,3

**)Dastlabki ma’lumot, kichik tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligi korxonalarisiz.*

2025- yil yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 115,1 foizni tashkil etib, jumladan Karmana tumanida 123,3 foiz, Tomdi tumanida 122,2 foiz, Navbahor tumanida 121,3 foiz, Xatirchi tumanida 119,3 foiz, Qiziltepa tumanida 118,0 foiz, Konimex tumanida shahrida 116,1 foiz, Nurota tumanida 115,4 foiz, G'ozg'on shahrida 114,3 foiz, Navoiy shahrida 114,2 foiz, Uchquduq tumanida 113,7 foiz va Zarafshon shahrida 109,2 foizga o‘sgani kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

ming so‘mda

	Yanvar-sentabr		Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da	
	2024- yil	2025- yil	2024- yil	2025- yil
Jami viloyat bo‘yicha:	**6 611,0**	**7 612,3**	**x**	**x**
shu jumladan:				
Sanoat	9 510,5	10 796,5	143,9	141,8
Qurilish	7 263,6	8 284,1	109,9	108,8
Savdo	3 690,9	4 132,8	55,8	54,3
Tashish va saqlash	4 979,3	5 834,3	75,3	76,6
Axborot va aloqa	7 649,8	8 289,5	115,7	108,9
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	12 793,1	13 954,0	193,5	183,3
Ta’lim	3 376,3	3 965,4	51,1	52,1
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	3 235,9	3 796,3	48,9	49,9
Boshqa faoliyat turlari	5 506,6	6 410,1	83,3	84,2

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati (183,3 %), sanoat (141,8 %), axborot va aloqa (108,9 %), qurilish (108,8 %), boshqa faoliyat turlari (84,2 %), tashish va saqlash (76,6 %), savdo (54,3 %), ta’lim (52,1 %) hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (49,9 %) sohalari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Sanoat sohasida 49 ta korxonada 81 454 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,3 %) xodim ishlagan bo‘lib, sanoat sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 10 796,5 ming so‘mni;

Ta’lim sohasida 688 ta korxonada 46 020 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,0 %) xodim ishlagan bo‘lib, ta’lim sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 965,4 ming so‘mni;

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 60 ta korxonada 20 794 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,3 %) xodim ishlagan bo‘lib, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 796,3 ming so‘mni;

Savdo sohasida 11 ta korxonada 1 271 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan 0,7 %), xodim ishlagan bo‘lib, savdo sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 132,8 ming so‘mni;

Qurilish sohasida 16 ta korxonada 5 073 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,8 %) xodim ishlagan bo‘lib, qurilish sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 284,1 ming so‘mni;

Axborot va aloqa sohasida 11 ta korxonada 448 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,2 %) xodim ishlagan bo‘lib, axborot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 289,5 ming so‘mni;

Tashish va saqlash sohasida 7 ta korxonada 1 252 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,7 %) xodim ishlagan bo‘lib, tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 834,3 ming so‘mni;

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida 38 ta korxonada 1 915 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodim ishlagan bo‘lib, bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 13 954,0 ming so‘mni;

Boshqa faoliyat turlari sohasida 328 ta korxonada 25 544 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,0 %) xodim ishlagan bo‘lib, boshqa faoliyat turlari sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 410,1 ming so‘mni tashkil etdi.